

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 6-son qarori (18.10.2021)

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/disclosure/shareholder-decisions/decision-6-20211018>

KUN TARTIBI:

1. “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvining 2020-yil moliya-xo'jalik faoliyatining yakunlari bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, shuningdek, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan choratadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqish.
2. “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisining mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarining 2020-yil yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish.
3. “O'zkimyosanoat” AJ Kuzatuv kengashining 2020-yil yakunlari bo'yicha hisobotini ko'rib chiqish.
4. “O'zkimyosanoat” AJ taftish komissiyasining 2020-yil yakunlari bo'yicha jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonunchilikning va jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosasini ko'rib chiqish.
5. “O'zkimyosanoat” AJ moliya-xo'jalik faoliyatining 2020-yil yakunlari bo'yicha AFMSga muvofiq tayyorlangan audit xisobotini tinglash.
6. “O'zkimyosanoat” AJ 2020-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash.
7. “O'zkimyosanoat” AJ 2020-yil yakunlari bo'yicha sof foyda taqsimoti va dividendlarni to'lash tartibi, hajmi va shaklini tasdiqlash.
8. “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruv organi tarkibini tasdiqlash va ularning vakolatlarini uzaytirish.
9. “O'zkimyosanoat” AJ 2020-yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash yakunlarini ko'rib chiqish.
10. “O'zkimyosanoat” AJning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishgacha bo'lgan davrdagi xo'jalik faoliyatida affillangan shaxslar bilan kelajakda amalga oshirish jarayonida keyingi yagona aksiyador yig'ilishiga qadar tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash.

[Yuklab olish](#)